

Xalqaro Nordik universiteti “Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti” da “Yangi yil” bazmi to‘g‘risida

HISOBOT

Joriy yilning 21-dekabr kuni Xalqaro Nordik universitetida - “Yangi yil” bo‘lib o‘tdi.

Universitetimiz bayram sahnasi - bayram archasi, qor parchalar, bayram qahramonlari, girlyandalar, sharlar, chiroqlar va boshqa yorqin yangi yil atributlari bilan tantanavor bezatib chiqildi. Yangi yil kechasida “Talent shou” g‘oliblari tomonidan eng sara qo‘shiqlar yangrab ishtirokchilarini raqsga chorladi. “Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti” dekani E.Umarov tomonidan eng yaxshi tilaklar va tabriklar yo‘llandi va iqtidorli talabalarga sertifikat hamda sovg‘alar taqdim etildi. Bayramda intellektual va kreativ o‘yinlar, musiqiy va badiiy chiqishlar barchaga bayramona kayfiyat bag‘ishladi. Tadbirda ishtirok etib g‘olib bo‘lgan talabalarga kafedra o‘qituvchilari tomonidan maxsus sovg‘alar taqdim etildi. Bayram pishiriqlari ulashildi.

Tadbir davomida talabalar shirinliklar va mazali taomlar bilan boyitilgan dasturxonga taklif qilindilar. Xalqaro Nordik universiteti nihoyasiga yetib borayotgan 2024-yilni yorug‘ yuz bilan kuzatib, yangi 2025-yilni ana shunday shodonlik bilan kutib oldilar!



Tyutor:

V.T.Abidjanova

